



## XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 17-fevral

VII-9-21-7-94-K/25

Jomboy tumani

### **Tuman mahalliy budgetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining “Budgeti kodeksi”ning 126-moddasiga va tuman mahalliy budgetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish ishchi guruhining xulosasiga muvofiq,O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, to'qqizinchi sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Jomboy tuman mahalliy byudjetining 2025-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan tumanimizning “Sarqipchoq” mahallasi 2025-yil “Obod xonodon”, “Obod ko'cha” va “Obod mahalla” dasturiga asosan obodonlashtirish, bunyodkorlik va infratuzulmani yaxshilash borasida ishlar olib borilishi belgilangan, hududdagi mahalla ma'muriy binosini qurish hamda qurilish mollari xarid qilish xarajatlari uchun 92,0 (to'qson ikki million) mln so'm mablag' tuman hokimligiga ajratilsin.

2. Tuman hokimining birinchi o'rinnbosari- iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Sadullayev)ga budjetga tegishli o'zgartirish kiritish, tuman g'aznachilik xizmati bo'limi (B.Boyxo'rozov)ga belgilangan tartibda to'lovni amalga oshirish hamda tuman hokimligi bosh hisobchisi (I.Uralov)ga ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanishni ta'minlash topshirilsin.

3. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiyasi (U.Mamatov) zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Jomboy  
tuman Kengash raisi



SOBIROV KAYUM  
XAMRAYEVICH